

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01**  
**RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**HOLIKULOVA FERUZA XASANOVNA**

**O‘QUVCHILARNING KOMMUNIKATIV KO‘NIKMALARINI**  
**ZAMONAVIY YONDASHUVLAR ASOSIDA SHAKLLANTIRISH**  
**METODIKASI**

**(ona tili va o‘qish savodxonligi fani misolida)**

**13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**PEDAGOGIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI**  
**AVTOREFERATI**

**Chirchiq – 2024**

**Pedagogika fanlari doktori (DSc)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктор  
педагогических наук (DSc)**

**Contents of dissertation abstract of the doctor  
pedagogical sciences (DSc)**

**Holikulova Feruza Xasanovna**

О‘quvchilarning kommunikativ ko‘nikmalarini zamonaviy yondashuvlar asosida shakllantirish metodikasi (ona tili va o‘qish savodxonligi fani misolida) ..... 3

**Холикулова Феруза Хасановна**

Методика формирования коммуникативных навыков студентов на основе современных подходов (на примере родного языка и читательской грамотности) ..... 31

**Kholikulova Feruza Xasanovna**

Methodology for forming students' communication skills based on modern approaches (using the example of their native language and reading literacy) ..... 61

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 67

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01**  
**RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**HOLIKULOVA FERUZA XASANOVNA**

**O‘QUVCHILARNING KOMMUNIKATIV KO‘NIKMALARINI**  
**ZAMONAVIY YONDASHUVLAR ASOSIDA SHAKLLANTIRISH**  
**METODIKASI**

**(ona tili va o‘qish savodxonligi fani misolida)**

**13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**PEDAGOGIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI**  
**AVTOREFERATI**

**Chirchiq – 2024**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasida B2024.3.DSc/Ped977 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Chirchiq davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (cspu.uz ilmiy-kengash) va «ZiyoNet» axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:**

**Botirova Shaxlo Isamiddinovna**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Xurvaliyeva Tarmiza Latipovna**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Artikova Muxayyo Botiraliyevna**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Xalova Maftuna Abdusalamovna**  
filologiya fanlari doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Shaxrisabz davlat pedagogika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «\_\_» \_\_\_\_\_soat \_\_\_\_dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (manzil: 111720, Toshkent viloyati Chirchiq shahri Amir Temur ko‘chasi 104-uy. Tel: (99870) 712-27-55; faks: (99870) 712-45-41; e-mail: chdpu-kengash@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Chirchiq davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_ raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 111720, Toshkent viloyati Chirchiq shahri Amir Temur ko‘chasi, 104-uy. Tel: (99870) 712-27-55; faks: (99870) 712- 45-41).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “\_\_” \_\_\_\_\_ da tarqatildi.

(2024-yil “\_\_” \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ - raqamli reestr bayonnomasi).

**U.N.Xodjamkulov**

ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash raisi, p.f.d., professor

**F.T.Rajabov**

ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash kotibi, p.f.d., dotsent

**V.B.Fayziyev**

ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash qoshidagi ilmiy seminar  
raisi, b.f.d., professor

## KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy sohalarda ro‘y berayotgan global o‘zgarishlar ta‘lim tizimini kompetensiyaviy yondashuv talablari asosida shakllantirishni taqozo etmoqda. Bern shahrida Yevropa Kengashi tomonidan o‘tkazilgan “Yevropa uchun tayanch kompetensiyalar” xalqaro simpoziumida ta‘lim oluvchilarning “aniq muloqot va yozish ko‘nikmalari” dan samarali foydalana olishlari, shaxsiy rivojlanish va ijtimoiy hayot uchun muhim bo‘lgan og‘zaki va yozma muloqotni shakllantirish, kommunikativlikka ega bo‘lmagan shaxslarda “ijtimoiy chetlanish” xavfi ostida ekanliklari ta‘kidlangan. Bugungi kunda ta‘lim oluvchilarning tayanch kompetensiyalar tizimiga kiruvchi kommunikativ ko‘nikmalarini shakllantirish va baholashda o‘qitishning an‘anaviy va innovatsion usullaridan kompleks foydalanishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Shu bois ta‘lim oluvchilarning kommunikativ ko‘nikmalarilarini shakllantirish bilan bog‘liq muammolarga amaliy yechimlar topish dolzarbligacha qolmoqda.

Xalqaro tajribalardan kelib chiqqan holda, AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Rossiya, Finlandiya, Janubiy Koreya kabi rivojlangan davlatlardagi ilmiy tadqiqot markazlari tomonidan ta‘lim jarayonini modernizatsiya qilish asosida loyihalarni rejalashtirishning ilmiy asoslangan metodik tizimini ishlab chiqishda amaliy natijalarga erishilmoqda. Shu sababli, raqobatbardosh va malakali kadrlarni tayyorlash tizimida nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash strategiyalarini ishlab chiqishga oid mavjud ta‘lim paradigmasini o‘zgartirish katta ahamiyatga ega. Nostandart vaziyatlarga moslashuvchan, mavjud muammolarni diagnostik tahlillash va ularning yechimini topish hamda kelgusidagi faoliyatiga tatbiq etish, shu asosda o‘quvchilarning sohaga tegishli va hayotiy muammolarni hal qilish ko‘nikma-malakalarini shakllantirish ta‘lim tizimi oldidagi dolzarb muammolardandir. Shu bois faol ijodiy fikrlovchi, izlanuvchan, zarur axborotlarni mustaqil ravishda izlab topuvchi, ularni o‘z amaliy faoliyati va hayotiy vaziyatlarda qo‘llay oluvchi o‘quvchilarni tayyorlashga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimizda ta‘lim sohasidagi strategik vazifalarning asosiy yo‘nalishida o‘quvchilarni izlanuvchan, mustaqil fikrlay oladigan, o‘z bilimlarini turli hayotiy vaziyatlarda qo‘llay oladigan qilib tarbiyalashni nazarda tutadi. Shu bois jamiyat va shaxs manfaati uchun zarur bo‘lgan rivojlanish tendensiyalarini aniq belgilash maqsadida “Ta‘lim va tarbiya tizimining barcha bo‘g‘inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida shakllantirish” ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda.<sup>1</sup> Bu esa umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida o‘quvchilarda kreativ, kritik, kommunikativ, kollaborativ ko‘nikmalarni shakllantirish tizimini modernizatsiya qilish va uning innovatsion pedagogik-metodik asoslarini shakllantirish zarurligini ko‘rsatadi. O‘quvchining og‘zaki va yozma muloqatchanligini real munosabatlarda qo‘llashga yo‘naltiradigan zamonaviy o‘qitish usullari, mazmuni, texnologik tuzilishi, mavjud

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>

sharoitdan kelib chiqib innovatsion ilmiy metodik asoslarini yaratishning zaruratini yuzaga keltiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son farmoni asosida qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha shakllantirish konsepsiyasi”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta‘lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada shakllantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-son “Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Farmonlari va 2020-yil 31-dekabrdagi “Malakalarni baholash tizimini tubdan shakllantirish va mehnat bozorini malakali kadrlar bilan ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4939-son Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-avgustdagi VM-466-son “O‘zbekiston Respublikasida uzluksiz boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus professional ta‘lim tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalarni shakllantirishning I.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy shakllantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi:** O‘tkazilgan ilmiy izlanishlar hamda tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchilar nutqini shakllantirish, kommunikativ savodxonlik muammolarining pedagogik-psixologik xususiyatlari S.Matchon [24], I.Azimova[215], Sh.Yusupova [216], M.T.Mirsoliyeva, N.Abdullayeva, D.Abduraximova, Z.Azizova, Sh.Shodmonova, T.Xurvaliyeva, G.Ibragimova, M.Berdiyeva, R.Sunnatova, Sh.Nuraliyeva, M.F.Qurbonova, Q.Husanboyeva, G.Berdaliyeva, M.Xushnazarovalar [146] , Ona tili o‘qitish metodikasida nutqiy malakalarni rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan tadqiqotlar muhim ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqotlar til o‘rganishda nutqiy ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan. H.Ne‘matov[62], A.Nurmonov[63], N.Mahmudov[65], B.Mengliyev, B.To‘xliyev, O.Roziqov, Sh.J.Yusupova, A.Ya.Bobomurodova, N.A.Qosimova, Sh.Sh.Yuldasheva, I.A.Azimova, M.Saidov, T.U.Ziyodova, N.X.Sattarova, M.Z.Hamdama, A.Q.Nisanbayeva, N.G.Alavutdinova, M.R.Hazratqulov[75], K.M.Mavlonova, N.Z.Umarova va G‘.H.Hamroyev[77]ning tadqiqotlari, o‘quv jarayonida nutqiy malakalarni rivojlantirish va ta‘lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishga olib kelishi mumkin bo‘lgan yangi metodikalar va yondashuvlar ishlab chiqishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu tadqiqotlar nutqiy kompetensiyani oshirish uchun turli xil strategiyalar, metodologiyalarning joriy etilishi va natijada o‘quvchilarning tilni amalda qo‘llay olish ko‘nikmalarini kuchaytirishga qaratilgan. larning ilmiy izlanishlarida o‘rganilgan.

Kommunikativ kompetentlikni shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari MDH mamlakatlari olimlaridan S.Lebedeva, N.Mixaylenko, N.Poddyakov, I.G.Agapov, S.Ye.Shishov, I.A.Zimnaya, A.V.Xutorskoy, S.I.Ojegov, G.M.Kodjaspirova, S.G.Zaymovskiy, D.N.Ushakov[124], M.A. Choshanov, Dj.Raven, O.A.Salnikova, N.F.Yefremova, O.B.Sirotinina[78] va boshqalarning ishlarida o‘z aksini topgan. Muloqotning asosiy tamoyillari va uning asosiy xususiyatlari, jamiyat madaniyati va inson ma’naviyati kabi tushunchalar o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganish bo‘yicha M.S.Kagan, S.A.Arutyunov, V.M.Mejuev, E.N.Yurkevichlar; shaxslararo muloqot madaniyati muammolari G.N.Andreeva, L.P.Gadzaova, I.I.Zaretskaya, E.P.Ilyin, S.L.Rubinshteynlar; kommunikativ trening S.N.Batrakova, S.V.Znamenskaya, N.V.Stepanovalar; kommunikativ kompetensiyaning madaniy komponentini shakllantirish V.S.Bibler, A.V.Vartanov, E.M.Vereshchagin, L.G.Viktorova, N.I.Geiz[96], V.S.Ilyin, R.P.Milrud, N.A.Salanovich[103], P.V.Susoyev, S.G.Ter-Minasova, G.D.Tomaxin va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan.

Xorijiy mamlakatlar olimlaridan C.R.Berger, V.Grabe, J.Harmer, C.Leung J.C.Richards[134], J.Hartig, E.Klieme, P.Heinrich[146], Hutmacher Valo[76]larning ilmiy tadqiqotlarida ham kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirish masalasi o‘rganilgan bo‘lsa-da, o‘quvchilarining kommunikativ ko‘nikmalarini zamonaviy yondashuv asosida ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari va metodik imkoniyatlarini aniqlash muammolari yetarlicha tadqiq etilmaganligi mazkur tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

“Davlat ta’lim standartlari kompetensiyaviy yondashuvga asoslanganligiga qaramasdan, o‘qitish va baholash metodlari, shuningdek, darsliklar va boshqa o‘quv materiallari asosan axborotni yodlash va bayon qilishga qaratilgan bo‘lib, tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish ko‘nikmalari va boshqa malakalarni shakllantirishga to‘sqinlik qilayotganligi ushbu muammo yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo etadi”.<sup>2</sup>

**Dissertatsiya ishining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya ishi Chirchiq davlat pedagogika universitetining “Pedagogik ta’lim innovatsion klasterining ilmiy-nazariy asoslarini yaratish va uni amaliyotga joriy etish mexanizmlarini ishlab chiqish” mavzusidagi ilmiy-amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi.**<sup>3</sup> Ta’lim sohasida filologik fanlarni o‘qitishni tarixiy, geografik, madaniy, lingvistik va

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida 2019-yil 29-aprel PF-5712-son Farmoni//Qonun xujatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 08.10.2019y.

<sup>3</sup> Bouton L. F. (Eds.). Pragmatics and language learning. University of Illinois, Urbana-Champaign: Division of English as an International Language. 2001; Bachman, L.F. (1990). Fundamental Considerations in Language Testing. Oxford etc.: OUP; Campbell, R., & Wales, R. (1970). The Study of Language Acquisition. In Lyons, J. (Ed.), New Horizons in Linguistics, Harodsworth: Pinguin Books Ltd; Canale, M., & Swain, M. (1980). Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing. Applied Linguistics, Chomsky, N. (1965). Aspects of the Theory of Syntax. Cambridge, Massachusetts: The M.I.T. Press; Hymes, D. H. (1972). On Communicative Competence. In Pride, J. B., & Holmes, J. (Eds.), Sociolinguistics, 269-293. Baltimore, USA: Penguin Education, Penguin Books Ltd; Meyer H., Klapper A. Unterrichtsstandards für ein kompetenzorientiertes Lernen und Lehren.– Berlin, 2009; И.С.Якиманская Основы личностно-ориентированного образования. – М.: «Бином. Лаборатория знаний», 2011; Пассов Е.И. Коммуникативный метод обучения иноязычному говорению. 2е изд. М.: Просвещение, 2011; Najmitdinova T.N. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘quv-bilish faoliyatini shakllantirishning didaktik asoslari: dis. kand. ped. nauk.-Toshkent, 2006.

pedagogik-metodik qadriyatlar bilan integratsiyalash, o'quvchilarni matnlar ustida ishlashda mantiqiy va tanqidiy fikrlashga o'rgatish, muloqot qilish, kommunikativ ko'nikmlarini shakllantirish, berilgan topshiriqlar asosida hamkorlikda ishlash, loyihalash faoliyatini shakllantirishning metodik asoslari jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari, jumladan Arizona, Garvard, Michigan (AQSh), Kembrij, Oksford, Edinburg (Buyuk Britaniya, Shotlandiya), Strasburg universiteti (Fransiya), Seul milliy universiteti (Janubiy Koreya), Anqara universiteti, Gazi universiteti, Hacettepe universiteti, Ondokuz Mayis universiteti (OMU) (Turkiya), Moskva davlat pedagogika instituti (Rossiya), M.Auezov nomidagi Janubiy Qozog'iston universiteti, L.N.Gumilyov nomidagi Yevroosiyo milliy universiteti (Qozog'iston), Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti (O'zbekiston) tomonidan ta'lim oluvchilarda lingvistik, pragmatik ko'nikmlarini shakllantirish mavzularida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Dunyo ta'lim tizimida filologik fanlarni o'qitishda amaliy topshiriqlar, kundalik vaziyatlardagi real voqeelikni, kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish bilan uzviy bog'lash, axborot-kommunikativ texnologiyalar asosida o'qitish, jamoaviy o'rganish, o'quv-biluv motivatsiyasini ta'minlash, matnlarda aks ettirilgan mazmuni tushunish, tanqidiy-mantiqiy fikrlash, adabiy qahramonlar fazilatlarini shaxsiy sifatlarda aks ettirish, holat va harakatlarning psixologik tavsifi, ta'lim oluvchiga tanish bo'lgan zamon qahramonlarini tanishtiruvchi-tushuntiruvchi-targ'ib qiluvchi matnlar asosida shaxsiy rivojlanish trayektoriyasini belgilash (AQSh); turli tillarda so'zlashuvchi xalqlarning o'ziga xos turmush tarzi va tafakkur uslubini badiiy matnlar orqali ochib berish strategiyalari, insoniylik va umummadaniyatni rivojlanishiga ta'sir etuvchi o'rganish omillari (Germaniya); adabiy matnlarga ijodiy yondashish asosida o'ziga xoslikning ijtimoiy-tarixiy va madaniy kontekstlarini aniqlash, so'zlardan turli nuqtai nazardan foydalanish, asardan olingan xulosalarni real vaziyatlarga integratsiyalovchi ta'limiy loyiha ishlarini yaratish, ta'lim oluvchi va hayotiy qahramonlar o'rtasidagi suhbatlar va treninglar metodologiyasini ishlab chiqish (Angliya); mavzu mohiyatini o'rganish jarayonida muhim elementlarni tahlil qilish, badiiy va axborot matnlarining mazmunini tushunish hamda real vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilishga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash masalalari tahlil qilingan (Turkiya).

**Tadqiqot maqsadi.** O'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini zamonaviy yondashuvlar asosida shakllantirish metodikasini ona tili va o'qish savodxonligi fanlari asosida ochib berishdan iborat.

**Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:**

ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini zamonaviy yondashuvlar asosida shakllantirishning tashkiliy-metodik, pedagogik-psixologik, uslubiy-didaktik shart-sharoitlari hamda uslubiy-metodik ta'minoti imkoniyatlarini aniqlashtirish;

o'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirishning samarali shakl va metodlarini ona tili va o'qish savodxonligi darslarini pedagogik-prognozli modellashtirish, nostandart vaziyatlarda ijodiy fikrlash faolligini intensiv optimallashtirish imkoniyatlarini amalga oshirish tamoyillari vositasida shakllantirish;

o'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini zamonaviy yondashuv asosida shakllantirishning funksional tuzulmasiga asoslangan metodik modelini baholovchi-namunaviy bosqichlarda pedagogik-metodik strategiyani ishlab chiqish asosida shakllantirish;

o'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarining zamonaviy yondashuvlar asosida shakllanganlik darajalarini baholash mezonlarini kognitiv, faoliyatli, kreativ yondashuv hamda miqdoriy ko'rsatkichlarning o'rtacha qiymati bo'yicha ishonch oralig'ini aniqlash asosida shakllantirish;

zamonaviy yondashuvlar asosida o'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirish texnologiyalarini kommunikativ-nutqiy faoliyatni olib boruvchi tarmoqlararo mobil muhitni tashkil etish, universal kommunikativ harakatlarni amalga oshirishning muloqotli kombinatsiyasini shakllantirish asosida shakllantirish;

**Tadqiqot obyekti.** O'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini zamonaviy yondashuvlar asosida shakllantirish jarayoni belgilanib, unda Samarqan viloyati Narpay tumanidagi 56-, 68-son, Navoiy viloyati Xatirchi tumanidagi 7-, 65-son, Toshkent viloyati Chirchiq shahridagi 12-, 25-sonli umumiy o'rta ta'lim maktablarining 820 nafar o'quvchisi ishtirok etdi.

**Tadqiqot predmetini** o'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirishning mazmuni, shakllari, metod va vositalari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot ishida mavzuga oid pedagogik, psixologik, metodik adabiyotlar, ilmiy manbalar, o'quv-me'yoriy hujjatlar, o'quv reja va dasturlarni qiyosiy o'rganish va tahlil qilish, kuzatuv, suhbat, test, o'z - o'zini baholash so'rovi, pedagogik-metodik tajriba-sinov, tadqiqot natijalarini matematik-statistik qayta ishlash metodlaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

o'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirishning tashkiliy-metodik, pedagogik-psixologik, uslubiy-didaktik shart-sharoitlari kommunikativ nutqiy faoliyatga tayyorlashning metodologik yondashuvlari va didaktik tamoyillarini shakllantirish, ta'lim sifatini oshiruvchi axborot-kommunikatsion aksiologik muhitni tashkillashtirish hamda o'quv jarayonining axborot-metodik ta'minotini shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar variativ, simbiotik qo'llash asosida aniqlashtirilgan;

o'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini zamonaviy yondashuvlar asosida shakllantirishning samarali metodlariona tili va o'qish savodxonligi darslarini pedagogik-prognozli modellashtirish, nostandart vaziyatlarda ijodiy fikrlash faolligi ko'nikmalarini intensiv optimallashtirish, ijodiy-faoliyatli imkoniyatlarini maksimal darajada oshirishning metodik tamoyillari vositasida takomillashtirilgan;

o'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirishning funksional tuzilmasiga asoslangan modeli maqsad, mazmun, jarayon, baholovchi-natijaviy bosqichlarda va pedagogik-metodik shart-sharoitlarni ta'minlashga ustuvorlik beruvchi pedagogik-metodik strategiyani ishlab chiqish hamda ta'lim subektlarining individual qobiliyatlarini, yakkadan umumiylik tamoyiliga ko'ra birgalikda o'rganish, loyihalash faoliyatlari asosida takomillashtirilgan;

o'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini gnostik, aksiologik, kreativ va empirik komponentlarini shakllantirishning reproduktiv, produktiv va ijodiy

darajalarini baholash mezonlari kognitiv, faoliyatli, kreativ yondashuv hamda miqdoriy ko'rsatkichlarining o'rtacha qiymati bo'yicha ishonch oralig'ini aniqlashtirish asosida takomillashtirilgan;

o'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini gnostik, aksiologik, kreativ va empirik komponentlarini zamonaviy yondashuv orqali shakllantirishning metodikasi kommunikativ-nutqiy faoliyatni olib boruvchi ijtimoiy tarmoqlararo mobil muhitni tashkil etish, universal kommunikativ harakatlarni amalga oshirishning muloqotli kombinatsiyasini shakllantirish hamda mustaqil rivojlanishga imkon beruvchi "Tasavvur mashqi" elektron dasturi, "5M" texnologiyasi, "So'z o'yini" mobil ilovasini ishlab chiqish asosida takomillashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

o'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirishga mo'ljallangan "Boshlang'ich ta'limda tarbiya fanini o'qitish metodikasi" fanidan darslik ishlab chiqilgan va nashr ettirilgan;

o'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini zamonaviy yondashuvlar asosida shakllantirish modeli ishlab chiqilgan;

o'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini shakllanganlik darajasini baholash mezonlari tizimlashtirilgan;

umum ta'lim maktablarining namunaviy o'quv rejasidagi boshlang'ich sinf fanlar blokiga kiruvchi "Ona tili va o'qish savodxonligi" fanini o'qitish jarayonida o'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan axborot didaktik ta'minot, mashqlar va ijodiy topshiriqlarni o'z ichiga olgan "Boshlang'ich ta'limda tarbiya fanini o'qitish metodikasi" nomli o'quv qo'llanma ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan;

Intellektual mulk agentligidan kommunikativ kompetensiya texnologiyalariga oid dasturlar va elektron ma'lumotlar bazalari uchun bitta mualliflik guvohnomasi olingan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchiligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchiligi qo'llanilgan yondashuvlar ilmiy-metodik usullar respublikamiz va xorijiy olimlarning qarashlari, amaliyotchi o'qituvchilarning tajribalariga tayanilgan, nazariy ma'lumotlarning ilmiy manbalardan olingani, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligi matematik statistik tahlilga asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi hamda olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati taklif qilingan zamonaviy yondashuv asosida ilg'or metodlar va rivojlantiruvchi treninglar orqali o'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyatlari va pedagogik-metodik shart-sharoitlari asoslanganligi, ona tili va o'qish savodxonligi ta'limining takomillashtirilgan modeli ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, ona tili va o'qish savodxonligi darslarini xalqaro baholash dasturlari asosida o'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha maxsus o'quv kurslari va treninglarning o'quv rejaları va axborot metodik ta'minoti hamda elektron ta'lim resurslari ishlab chiqilganligi hamda "Boshlang'ich ta'limda "Tarbiya" fanini o'qitish metodikasi" darsligi yaratilganligi va amaliyotga joriy etilganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida o‘quvchilarning kommunikativ ko‘nikmalarini zamonaviy yondashuvlar asosida shakllantirish bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

o‘quvchilarning kommunikativ ko‘nikmalarini shakllantirishning tashkiliy metodik, pedagogik-psixologik, uslubiy-didaktik shart-sharoitlarini kommunikativ-nutqiy faoliyatga tayyorlashning metodologik asoslari va didaktik tamoyillarini ona tili va o‘qish savodxonligi ta‘limi sifatini oshiruvchi axborot-kommunikatsion aksiologik muhitni tashkillashtirish hamda o‘quv jarayonining axborot-metodik ta‘minotini shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim metodikasini shakllantirishga doir ilmiy xulosalar “Boshlang‘ich ta‘limda “Tarbiya” fanini o‘qitish metodikasi” darsligi mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2022-yil 25-noyabrdagi 388-son buyrug‘i ma‘lumotnomasi). Natijada boshlang‘ich sinflarning ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida o‘quvchilarning kommunikativ ko‘nikmalarini shakllantirish imkoniyatlari ortgan;

o‘quvchilarning kommunikativ ko‘nikmalarini zamonaviy yondashuvlar asosida shakllantirishning samarali metodlari ona tili va o‘qish savodxonligi darslarini pedagogik-prognozli modellashtirish, nostandart vaziyatlarda ijodiy fikrlash faolligini ta‘minlash, deduktiv jarayonlarini intensiv optimallashtirishga qaratilgan ijodiy faoliyatli imkoniyatlarini maksimal darajada oshirish, yangi bilim va ko‘nikmalarni qabul qilishga, turli hayotiy vaziyatlarda mustaqil, faol va mas‘uliyatli qarorlar qabul qilishga doir taklif va tavsiyalardan Jizzax politexnika instituti ilmiy-tadqiqot rejasining OT-F1-049 raqamli “Talabalarga assertiv xulqni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari” nomli ilmiy loyihani bajarishda foydalanilgan (Jizzax politexnika institutining 2024-yil 04-sentyabrdagi 03-1723-1712-son ma‘lumotnomasi). Natijada ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida zamonaviy yondashuvlar asosida o‘quvchilarning kommunikativ ko‘nikmalarini shakllantirish orqali ta‘lim sifati va samaradorligini oshirish metodikasi takomillashtirilgan;

o‘quvchilarning kommunikativ ko‘nikmalarini shakllantirishning funksional tuzilmasiga asoslangan metodik modeli maqsad, mazmun, jarayon, baholovchi natijaviy bosqichlarda va pedagogik-metodik shart-sharoitlarni ta‘minlashga ustuvorlik beruvchi pedagogik-metodik strategiyani ishlab chiqish hamda ta‘lim subektlarining individual qobiliyatlarini, yakkadan umumiylik tamoyiliga ko‘ra birgalikda o‘rganish, loyihalash faoliyatlari asosida takomillashtirilgan doir takliflar T.N.Qori-Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti Qoraqalpog‘iston filialidan A1-XT-0-92997 raqamli “Yoshlarni umuminsoniy, milliy va tarixiy qadriyatlar uyg‘unligi asosida ma‘naviy-axloqiy tarbiyalashning muammolari” mavzusidagi amaliy fundamental loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Pedagogika Fanlari ilmiy-tadqiqot instituti Qoraqalpog‘iston filialining 2024-yil 04-sentyabrdagi 340-son ma‘lumotnomasi). Natijada ishlab chiqilgan metodik model o‘quvchilarning kommunikativ ko‘nikmalarini shakllantirishga, faol ijtimoiyashuviga asoslangan;

o‘quvchilarning kommunikativ ko‘nikmalarini zamonaviy yondashuv orqali shakllantirish metodikasi kommunikativ-nutqiy faoliyatni olib boruvchi ijtimoiy tarmoqlararo mobil muhitni tashkil etish, universal kommunikativ harakatlarni

amalga oshirishning muloqotli kombinatsiyasini shakllantirish hamda mustaqil rivojlanishga imkon beruvchi “intuiusiy mashqi“ elektron dasturini ishlab chiqish va “Milliy o‘quv dasturi” doirasida xalqaro tajriba va mehnat bozori talablarini hisobga olgan holda umumta’lim maktablari uchun zamonaviy ta’lim standartlarini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Respublika ta’lim markazining 2024-yil 20-maydagi 01/11-6-248-son ma’lumotnomasi). Natijada ishlab chiqilgan metodik ishlanmalar o‘quvchilarning kommunikativ ko‘nikmalarini shakllantirishga, ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi** Dissertatsiya tadqiqoti natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan hamda O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligining (№DGU 28969) guvohnomasi olingan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 19 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya, 1 ta darslik, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda jami 11 ta ilmiy maqola, jumladan, 7 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, 4 bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 200 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti aniqlangan, shuningdek, tadqiqot ishining fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan hamda ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarining amaliyotga joriy etilishi, e’lon qilinganligi, ishning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“O‘quvchilarning kommunikativ ko‘nikmalarini zamonaviy yondashuvlar asosida shakllantirishning ilmiy-metodik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida o‘quvchilarning kommunikativ ko‘nikmalarini zamonaviy yondashuvlar asosida shakllantirish mazmuni, metodologik asoslari, maqsad va vazifalari, xalqaro baholash dasturlari mezonlari, ilmiy-metodik muammoning pedagogik-psixologik xususiyatlari tahlilga tortilgan.

Raqamlashtirilgan va sun‘iy intellekt tomonidan boshqariladigan dunyoda shaxslararo muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish masalasi yanada muhimroq bo‘lib bormoqda. Deyarli barcha mamlakatlardagi ijtimoiy, iqtisodiy, ilmiy va texnologik taraqqiyot turli gadjetlar, texnologiyalar va internet materiallari ta’siri orqali bolalar va kattalar dunyosini boshqarmoqda. Bir tomondan, bunday yondashuvlar yosh avlodning intellektual rivojlanishiga, fikrlash qobiliyatining o‘sishiga, mantiqiy fikrlash qobiliyatlarining oshishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Boshqa tomondan, atrofdagi odamlar va ularning tengdoshlari bilan samimiy muloqot qilish jarayonida ko‘rinmas to‘siq yaratadi. Butun dunyoda globallashuv jadallashib borar ekan,

internet orqali onlayn muloqot orqali shaxslararo muloqotning yangi shakli paydo bo'ldi. Onlayn muloqotda turli tasvir va ramzlardan keng foydalanilsa, jonli muloqotda hissiyotlar, mimika, pantomima va ta'sirchanlik muhim o'rin tutadi. Shu bois, bolalarni erkin va ijodiy fikrlay oladigan, boshqalar bilan bemalol muloqot qila oladigan, turli nutqiy vaziyatlarga moslasha oladigan, pragmatik ko'nikmalarga ega bo'lgan, o'z ona tilini o'zlashtirgan, o'zligini anglaydigan, axloqiy va ma'naviy kamolotini tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish bugungi ta'lim jarayonida ijtimoiy-metodik zaruratga aylanib bormoqda. Chunki bu ko'nikmalar o'quvchilarda ravon nutq va muloqotchanlikni rivojlantiradi. Kommunikativ ko'nikmalarning asosiy maqsadi o'quvchilarni takroriy og'zaki nutq va o'quvchilar o'rtasidagi hamkorlik orqali turli real hayotiy vaziyatlarda ishonchli kommunikator bo'lishga tayyorlashdir. Hayotiy vaziyatlarda o'quvchilar uchun dolzarb bo'lgan jarayonlar, ijtimoiy munosabatlar muloqot yordamida hal qilinadi. Til materialidan foydalanib, o'qish, o'rganish, tafakkur qilish hamda muloqotga kirishish kommunikatorlik belgisi hisoblanadi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Ona tili" va "O'qish savodxonligi" fanini o'qitishning asosiy vazifasi - o'qitish oldiga qo'yilgan ijtimoiy buyurtma o'quvchini fikrlashga, o'zgaralar fikrini tushunishga va uning mahsulini ifoda eta olish, real munosabatlarda o'rganganlarini qo'llay olishga o'rgatishdan iborat. Bu fikrni og'zaki va yozma shaklda kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.

Kommunikativ ko'nikmalar – shaxslararo munosabatlarda shaxsning o'z fikri, his-tuyg'ulari, hissiyotlarini to'g'ri, ongli, izohli, sharxli, kreativ ifodalashga imkon beradigan qobiliyat, odat, malakalar tizimidir. Kommunikativ ko'nikmalar muloqot ishtirokchilarining ijtimoiylashuv jarayonlarini faol tashkil etish, o'z fikrini to'g'ri tushuntirish va to'g'ri qabul qilinishini ta'minlaydi. Kommunikativ ko'nikmalar bir vaqtning o'zida eshitish tushunish, yozish, o'qish va gapirish ko'nikmalarini shakllanganlik darajasi bilan o'lchanadi.

Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilar bilan real muloqotga kirishish, hayotiy vaziyatlarga asoslangan muloqot jarayonini tashkil etish kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishda ijobiy samara beradi. Ijtimoiylashuv jarayonida eng muhim mezon hisoblangan kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish ta'lim oluvchilarga o'z fikrini bildirish, muloqot qilish, jamoada faol munosabat olib borishga yordam beradi.

Kommunikativ ko'nikmalar tilshunoslik nuqtai nazaridan nutq faoliyatining turli sharoitlarida lingvistik kompetensiyani shakllantirish qobiliyati insoniy muloqotning muhim jihati hisoblanadi. Psixologik nuqtai nazardan kommunikativ ko'nikmalar deganda shaxsning nutq faoliyatini samarali muloqot shakllarida tashkil etish qobiliyati tushuniladi. Turli adabiyotlarni tahlil qilganda, ko'plab xorijiy tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish vazifasi real vaziyatlarga asoslangan muloqot jarayonida amalga oshiriladi. Taniqli pedagog I.A.Zimnyaya kommunikativ ko'nikmalarni shaxsning kommunikativ faoliyatda subyekt rolini o'ynash qobiliyati deb belgilaydi.<sup>4</sup>

---

<sup>4</sup> Зимняя, И.А. Методы интенсивного обучения иностранным языкам / И.А. Зимняя. -М., 1979. С.14.

Kommunikativ ko‘nikmalar - bu ijtimoiy kontekstda kommunikativ maqsadlarga samarali erishish qobiliyati. U tegishli kontekstlarda samarali ko‘nikmalarni tanlash va ulardan foydalanishni o‘z ichiga oladi. U og‘zaki bo‘lmagan harakatlarni o‘z ichiga oladi.

Kommunikativ ko‘nikmalar bilim va ko‘nikmalarning to‘rtta sohasini o‘z ichiga oladi: grammatik kompetensiya, sotsiolingvistik kompetensiya, nutqiy kompetensiya va strategik kompetensiya. Kommunikativ bo‘lish suhbatda qatnashish, fikr va g‘oyalarni almashish qobiliyatiga ega bo‘lishni angladi. Kommunikativ shaxs – bu suhbatga oson kirisha oladigan, muloqot jarayonida va ijtimoiy munosabatlarda faol ishtirok etadigan shaxs. Kommunikativ ko‘nikmalar faqat lug‘at yoki grammatikaga oid nazariy qoidalarini yodlash emas, balki ma‘lum bir tilda muloqot qilish uchun zarur bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lish qobiliyatidir.

Bachman kommunikativ ko‘nikmalarga “muloqot jarayonida tilga oid bilimlardan kontekstga mos tarzda foydalanish qobiliyati” deb ta’riflagan.<sup>5</sup>

Bizning fikrimizcha, kommunikativ ko‘nikmalar - bu o‘quvchilarning o‘z nutqini tushunish, og‘zaki va yozma, ichki va tashqi nutqqa ega bo‘lish, nutq vaziyatiga mos keladigan tarzda fikrlarni ifodalash, turli shakldagi ma‘lumotlarni o‘qib-eshitib tushunish natijalarini real vaziyatlarda va ijtimoiy munosabatlarda qo‘llay olishdir.

Kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirish ijtimoiylashuv jarayonida hal qilinishi lozim bo‘lgan muhim vazifalardan biridir. Misol tariqasida aytishimiz mumkinki, “Boshlang‘ich, umumiy o‘rta, kasb-hunar va oliy ta‘lim tizimlarida ona tili fanining yaxlitligini ta‘minlash konsepsiyasi”da kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirishga alohida e‘tibor qaratilgan bo‘lib, u o‘quvchining fikrlashi, o‘zgaralar fikrini tushunishi, o‘z fikrini nutq sharoiti talablariga muvofiq og‘zaki va yozma shaklda bayon etishi kabi vazifalar belgilangan. O‘quvchilar kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirilishi natijasida mantiqiy, tanqidiy, ijodiy va tizimli fikrlash, tez va to‘g‘ri mustaqil qarorlar qabul qilish, intellektual qobiliyatlarini namoyon etish orqali ma‘naviy jihatdan yetuk shaxs sifatida shakllana boradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘rtasida kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirishda bir qancha muammolar mavjud bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

qo‘rqish tuyg‘usi. O‘quvchilarning qo‘rqish tuyg‘usi qobiliyatlarini namoyish qilishiga to‘sqinlik qiladi. Ichki qo‘rquvga ega bo‘lgan o‘quvchilar doimiy ravishda o‘zlariga “Men xato qildimmi?” yoki “Mening fikrim noto‘g‘rimi?” degan savollar ustida o‘ylab qoladi;

o‘quvchilarning passivligi. Odatda muloqot jarayonlarida o‘quvchilarda passiv xatti-harakatlar kuzatiladi. Bu passivlik ularning bolaligidan kelib chiqadi. Agar o‘quvchilarda muloqot qilish ko‘nikmalari to‘g‘ri shakllanmagan bo‘lsa, ularning passivligi uzoq vaqt davomida saqlanib qolishi mumkin;

o‘quvchilarning darsdagi tortinchoqligi. Oilada farzandiga nisbatan keskin va agressiv munosabat bildirilishi, o‘qituvchining qattiqqo‘lligi natijasida tortinchoqlik yuzaga keladi;

fanlardan o‘rganiladigan mavzuni tushunmasligi;

---

<sup>5</sup> Bachman, L.F. Fundamental Considerations in Language Testing. Oxford etc.: OUP. 1990. Pp.58.

ijodiy-emotsional faoliyat muhitining yoʻqligi.

Boshlangʻich sinf oʻquvchilarida kommunikativ koʻnikmalarni shakllantirishga oʻqish, yozish, gapirish va tinglash koʻnikmalarini shakllantirish orqali erishiladi. Talaffuzni oʻrgatish davridan boshlab toʻrtta asosiy yoʻnalish bilan parallel ravishda tizimli yondashuv qoʻllaniladi. Boshlangʻich sinf oʻquvchilarida muloqot koʻnikmalarini, nutq malakasi shakllantirishda amaliy bilimlarning eng yuqori darajasini taʼminlaydigan kommunikativ mashqlar muhim oʻrin tutadi.

Boshlangʻich sinf oʻquvchilarida kommunikativ koʻnikmalarni shakllantirish til taʼlimining eng muhim vazifalaridan biridir. Shu maqsadda ona tili va oʻqish savodxonligi darslarini “muloqot darsi”ga aylantirish, buning uchun har bir darsning eng katta qismini kommunikativ mashqlarga bagʻishlash kerak. Kommunikativ mashqlar qanchalik xilma-xil va mazmunli boʻlsa, oʻquvchilarning kommunikativligi shunchalik yuqori boʻlishi tadqiqotimiz davomida oʻz tasdigini topdi. Raqamli asrda shaxslararo muloqot koʻnikmalarining ahamiyati hamda oʻquvchilarda ijodkorlik va pragmatik kompetensiyani shakllantirish zarurati tobora ortib bormoqda. Ona tili va oʻqish savodxonligi darslariga kommunikativ mashqlarni integratsiyalash har bir darsning salmoqli qismini tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Boshlangʻich sinflarda ona tili va oʻqish savodxonligi, rus tili, ingliz tili fanlari oʻquvchilarning kommunikativ koʻnikmalarini shakllantirishda asosiy tayanch fan sifatida xizmat qiladi. Mazkur fanlar boshlangʻich sinf oʻquvchilarida kommunikativ koʻnikmalarni shakllantirishga, ularning oʻqish va tushunish malakasini oshirishga hamda boshqa fanlar boʻyicha nazariy bilim va amaliy koʻnikmalarni egallashiga, taʼlimning keyingi bosqichlarida chuqurroq bilim olishga yordam beradi. Bu ularda muloqot orqali dunyoni kengroq tushunish imkonini oshiradi. Shuning uchun boshlangʻich sinf oʻqituvchisi kommunikativ koʻnikmalarining mazmuni va mohiyatini chuqur tushunishi, shuningdek, muloqot koʻnikmalarini shakllantirish usullarini bilishi juda muhimdir.

Dissertatsiyaning **“Zamonaviy pedagogik-metodik yondashuvlar asosida oʻquvchilarning kommunikativ koʻnikmalarini shakllantirish mexanizmlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida taʼlimdagi zamonaviy pedagogik-metodik yondashuvlarning metodik imkoniyatlari, oʻquvchilarning kommunikativ koʻnikmalarini shakllantirishga taʼsir etuvchi omillar tahlili, zamonaviy pedagogik-metodik yondashuvlar asosida oʻquvchilarning kommunikativ koʻnikmalarini shakllantirish bosqichlari tahlil etilgan.

Bugungi kunda taʼlim sohasida interfaol metodlar, pedagogik-metodik texnologiyalar, turli didaktik oʻyinlar kabi yangi, zamonaviy uslub va innovatsion yondashuvlar mavjud. Shuningdek, taʼlim sifati va samaradorligini, oʻquvchilarning oʻrganishga boʻlgan ishtiyoqini oshirish, olgan bilimni real munosabatlarda qoʻllay olishni shakllantirishga qaratilgan usullardan keng foydalaniladi. Mazkur bobda oʻquvchilarning kommunikativligini shakllantiruvchi metodlar - interfaol taʼlim va ijodiy oʻqitish asosida ishlab chiqilgan usullar yigʻindisi tahlil etiladi. Oʻquvchilarning ijodkorligini shakllantiruvchi metodlar kommunikativligini shakllantirishning eng samarali vositasidir.

O'quvchilarda kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishda mustaqil fikrlash, ijodiy iqtidorini tavsiflovchi kreativlik qobiliyatlarini shakllantirib borish talab etiladi. O'quvchilarning kreativ fikrlashi kommunikativligining qay darajada shakllanganligini namoyon qiladi. O'quvchilarda kreativlikni shakllantirish hamda muloqotchanligini oshirishda o'quv faoliyatini quyidagi shakllarda tashkil etish ijobiy samara beradi:

- individual ishlash;
- juftlikda ishlash;
- kichik guruhlarda ishlash;
- jamoaviy ishlash.

Ona tili va o'qish savodxonligi fanini o'qitish yuzasidan olib borgan izlanishlarimiz davomida kundalik hayot va real vaziyatlarga bog'langan ijodiy topshiriqlarning berilishi o'quvchilarda quyidagicha kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish imkonini beradi:

- ijodiy va kreativ fikrlashni shakllantirish;
- ijodiy fikrlash asosida yon atrofdagilarga ijobiy munosabatda bo'lish;
- mustaqil fikrlash;
- o'z fikrlarini asoslash;
- guruh yoki jamoa bilan hamkorlikda o'rganish;
- mantiqiy fikrlash;
- tanqidiy mulohaza bildirishdan qo'rqmaslik;
- o'z fikrini psixologik to'siqlarsiz tengdoshlari orasida erkin ifoda etish;
- muammolarni tez va to'g'ri hamda ijobiy hal qilish;
- guruh yoki jamoa a'zolari bilan ijobiy emotsional yaqinlikka erishish.

Kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish inson psixologiyasining muhim qismi sifatida shunchaki bilimlarni to'plash emas, balki o'zini rivojlantirish jarayoni, shaxsiy o'sishning asosidir. Bu mavjud stereotiplarni takomillashtirish va o'zgartirish yangi strategiyalarni qo'llash, shuningdek, kutilmagan va osonlik bilan hal bo'lmaydigan kundalik muammolarni tez va to'g'ri hamda ijobiy hal qilishni o'z ichiga oladi hamda shaxsiy rivojlanish asosida kasbiy rivojlanishga undaydi.

O'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini o'ziga xos qobiliyatlari va psixologik ta'sir etish usullari asosida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim sharoitida amalga oshirishga bo'lgan zarurat tobora ortib bormoqda. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi inson falsafasi, psixologiyasi va metodikaning uyg'unligini taqozo etadi. Pedagogning diqqat-e'tibori o'quvchining imkoniyatlarini maksimal darajada oshirishga, yangi bilim va ko'nikmalarni qabul qilishga, turli hayotiy vaziyatlarda mustaqil, faol va mas'uliyatli qarorlar qabul qilishga qaratilgan bo'lib, o'quvchi shaxsini har tomonlama shakllantirishda dars jarayonini zamonaviy pedagogik-metodik yondashuvlar asosida tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha olib borilgan izlanishlar natijasi shuni ko'rsatdiki, o'quvchining individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda yondashish o'quvchi bilan o'quvchi, o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi muloqot samarali tashkil etishga erishiladi. Pedagog olim Y.I.Passov ilmiy izlanishlarida kommunikatsiyaga ta'lim metodi sifatida qaragan holda kommunikativ metod - ta'lim

metodi bo'lib, o'quvchi mazkur metod asosida gapirishga o'rgatiladi, degan g'oyani ilgari suradi.

Y.I.Passovning fikricha, gapirishga o'rgatish tushunchasi ko'p tarmoqli tushuncha sifatida:

inson hayotida muloqot vazifasini bajaradi;

gapirish - faoliyat turi bo'lib, insonga xos bo'lgan aniq faoliyatni ifodalaydi;

gapirish faoliyati natijasida fikr bayoni vujudga keladi.

Ta'lim jamiyatni takomillashtirish va uni yangi texnologiyalar, zamonaviy bilimlar bilan shakllantirishning asosiy omilidir. Bugungi kunda ta'lim sifati mamlakatimiz iqtisodiyoti, jamiyatning ijtimoiy va madaniy ahvoli, milliy ta'lim tizimining mustahkamlanishi va samaradorligini belgilab bermoqda. Tez o'zgarib borayotgan dunyo talablariga javob berish uchun zamonaviy ta'lim trayektoriyasini kengaytirish zarurati tobora ortmoqda. Axborot muhitining erkinligi va cheksizligi hamda ta'lim jarayonlarini zamonaviy tendensiyalarga moslashtirishni taqozo etadi. Zamonaviy maktab ta'limi konsepsiyasining bugungi kundagi asosiy maqsadi o'quvchilarni globallashtirgan dunyoda raqobatbardosh va faol shaxslar qilib tarbiyalash, ularni XXI asrda ijtimoiy faollashuviga tayyorlashdan iborat. Zamonaviy maktablarda ona tili va o'qish savodxonligi fanlari o'quvchining nafaqat bilish darajasi, balki fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish hamda tilga oid bilimlarini real vaziyatlarda qo'llay olishga ham qaratilgan.

Tadqiqot ishimiz davomida zamonaviy pedagogik-metodik yondashuvlar o'quvchining ehtiyojlari, umumiy bilish va tushunish darajasiga moslashuvchan, ta'lim samaradorligiga ta'sir qiluvchi mexanizmlarga e'tibor qaratildi. Hozirgi zamon pedagogik-metodik yondashuvlar o'zining ijtimoiy jihatlari bo'yicha doimiy ravishda takomillashib, o'zgarib, rivojlanib boruvchi pedagogika fanining tadqiqot va qo'llash ob'yekti sifatida qaraladi. Har bir davrning o'ziga xos tashkiliy tamoyillari, o'qitish usullari mavjud bo'lib, ular pedagogikaning metodologiyasi va konsepsiyasini birgalikda shakllantiradi. Shu bilan birga, har bir davr uchun uning metodologiyasi va konsepsiyasining asosini tashkil etuvchi umumiy tamoyillar ham mavjuddir.

Ta'lim raqobati sharoitida zamonaviy pedagogik paradigmalari asosida turli pedagogik an'analar, tushunchalar shakllanadi. Paradigma - ta'lim tizimining kelajak yo'nalishlarini belgilovchi yetakchi tamoyil hisoblanadi. Hozirgi vaqtda pedagogika sohasida quyidagi paradigmalarni yetakchi tamoyillar sifatida ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Kognitiv paradigma: bolaga maksimal miqdordagi bilimlarni uzatishni, uning aqliy rivojlanishini ustuvor deb hisoblaydi. Bunda o'qituvchining majburlash istagi yetakchilik qiladi va o'quvchining istak hamda qiziqishlari yetarlicha hisobga olinmaydi.

2. Shaxsiy paradigma bolaning hissiy va ijtimoiy rivojlanishini birinchi o'ringa qo'yadi. Bunday yondashuvda o'quvchilarning qiziqishlari, muloqoti muammolariga katta e'tibor beriladi va ularga qo'yilgan me'yorlar qat'iy belgilanmaydi.

3. Madaniy paradigma o'quvchining ma'naviy barkamol shaxs sifatidagi tarbiyasiga alohida e'tibor qaratadi. Bunday ta'lim paradigmasida majburlash

elementlari mavjud, chunki madaniy qadriyatlarni o'zlashtirish zaruratini to'g'ri anglaydigan o'quvchilar ko'pchilikni tashkil qilmaydi.

4. Kompetentlik paradigmasi kognitiv-axborot paradigmasidan o'sib chiqadi. Bunday yondashuv axborotni cheksiz uzatishni nomaqbul deb hisoblaydi va o'quvchilarga muayyan kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan axborotlarni maqsadli berishni ma'qullaydi.

Bizningcha, bugungi globallashuv jarayonida tadqiqotchi M.Qurbonova ta'kidlaganidek: ta'lim beruvchi, ta'lim oluvchi hamda ta'lim jarayonini tashkil etuvchi va nazorat qiluvchi ta'lim subyektlarida pedagogik-metodik qadriyatlar asosida zamonaviy yondashuvlarni shakllantirish ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Gumanistik qadriyatlar bilan boyitilgan ta'lim muhitini tashkil etish didaktik sifat jihatidan foydali bo'ladi. Ta'lim muassasasida bunday muhitning yaratilishi o'quvchining bilim olish qobiliyatini, o'qituvchining zamonaviy pedagogik-metodik faoliyatda faolligini oshirishi bilan katta ahamiyatga ega. An'anaviy yondashuvlardan farqli o'laroq, muassasada ijodiy ta'lim muhitini yaratish o'rganishni osonlashtirish, yangi tajriba va muammolarni qabul qilish, turli vaziyatlarda mustaqil qarorlar qabul qilish, tanqidiy fikrlash kabi fazilatlarga ega bo'lgan o'quvchilarni tarbiyalash uchun uning imkoniyatlarini maksimal darajada oshirishga qaratilgan.

Bunday vaziyatlarda zamonaviy pedagogik-metodik faoliyat bilan shug'ullanuvchi o'qituvchi vaziyatni baholay olishi, qisqacha mazmunini muhokama qilishi, talqinini tushuntirishi yoki o'quvchining qiziqishi va ehtiyojlariga mos keladigan boshqa ishni tavsiya qilishi maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqot ishimizda o'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini zamonaviy yondashuv paradigmasini vektoriga mansub bo'lgan mexanizm sifatida shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar asosida shakllantirish usullari tahlil etilgan. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi ijtimoiy me'yorlarga asoslangan, an'anaviy pedagogik-metodik texnologiyalardan farqli o'laroq, o'quvchining ehtiyojlari, umumiy bilish darajasi, qiziqishlari va individual xususiyatlariga ko'ra o'quvchiga moslashuvchan ta'lim usullarini qamrab oladi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim o'quvchida mustaqillik, tashabbuskorlik, mas'uliyat, tanqidiy fikrlash, o'z-o'zini boshqarish va tartibga solish kabi fazilatlarni tarbiyalaydi. Mazkur jarayon o'quvchining ta'lim tizimiga muvofiq emas, balki uning individual xususiyatlaridan kelib chiqib rivojlanishiga imkon beradi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim o'quvchining o'z qobiliyatini shakllantirish, mustaqilligini namoyon etish, faol bilim olishga, amaliy faoliyatda o'zini sinab ko'rishga, yangi g'oya va fikrlarni ifodalashga, mavjud muammolarning samarali yechimini topishga sharoit yaratadi. Bu har bir o'quvchining o'ziga xos tabiati va xarakterini namoyon etishi mumkin bo'lgan muhitni ta'minlash orqali o'quvchining ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi.

O'qituvchi dars jarayonida o'quvchilarning tayanch va fanga oid kompetensiyalari va tafakkurini shakllantirishga hissa qo'shadigan mexanizmlardan (muammo yechimiga doir izlanish, dialog, evristik suhbat, bahs-munozara, frontal, guruhda ishlash, muloqot) foydalanishi natijasida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim muhitini yaratadi. Shu o'rinda o'quvchilarda kommunikativ ko'nikmalarni

sakllantirishdagi samarali mexanizm sifatida muloqot metodiga to'xtalib o'tmoqchimiz. Muloqot metodi - bu ta'lim jarayonida o'quvchilar o'rtasida fikr almashish, savol-javob qilish va o'zaro muloqot o'rnatish orqali bilim, ko'nikma va qobiliyatlarni rivojlantirish uchun mo'ljallangan an'anaviy metodidir. Muloqot metodi bugungi raqamlashuv va smart texnologiyalar davrida o'quvchilar o'rtasida yo'qolib borayotgan, didaktik ahamiyatga ega bo'lgan metod bo'lib, ushbu metod interaktivlik, ishtirok etish va faol o'rganishga asoslangan bo'lib, o'quvchilarni og'zaki va yozma muloqotga jalb qiladi va ular o'rtasida fikrlar almashinuvini ta'minlaydi. Bugun sotsial tarmoqlarda muloqot qilish tobora ommalashmoqda. Sotsial tarmoqlar yozma, audio va video tarzida muloqot qilish imkonining mavjudligi kommunikatorlar uchun qulaylik yaratadi.

Muloqot metodi o'quvchilarning dars jarayonida faol ishtirok etishini ta'minlaydi hamda o'quvchilarning o'z fikrlarini erkin ifodalashiga yordam beradi, bu esa ularning o'ziga bo'lgan ishonchni oshiradi. Bu metod o'quvchilarga turli misollar va tajribalarini taqqoslash imkoniyatini beradi. Muloqot jarayonida o'quvchilar muammolarni birgalikda hal qilishga harakat qilishadi, bu esa ularning analitik fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

O'quv materiallari o'qituvchi tomonidan o'quvchini qiziqtiradigan, uning shaxsiy tajribasiga mos keladigan, tafakkuriga turtki beradigan, ijodkorlikni rag'batlantiradigan tarzda tuzilishi shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar maqsadiga muvofiq keladi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim mexanizmlari o'quv jarayonini o'quvchining shaxsiy nuqtai nazarini hisobga olishga yo'naltiradi, ya'ni u o'quvchining shaxsiy modelidan kelib chiqib, ilgari qo'yilgan talablardan oshib ketishni maqsad qiladi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi, birinchi navbatda, shaxsiy rivojlanish va psixoterapevtik yo'nalishga qaratilganligi bilan boshqa texnologiyalardan farq qiladi. Majburlash o'rniga, bolaga har tomondan hurmat bilan munosabatda bo'lish, uni ijobiy nuqtai nazardan ko'rish va ijodiy qobiliyatlariga ishonch va empatik munosabatlatni mustahkamlaydi. Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyada shaxs bilan ijobiy, do'stona, empatik munosabatda olib boriladigan muloqot jarayoni birinchi o'rinda turadi va u individual yo'l-yo'riq, o'ylangan demokratik boshqaruv va insoniy mehr-muruvvat nuqtai nazaridan boshqa yondashuvlardan ustun turadi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv o'quvchida o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi. O'quvchining kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirishda ishonch asosiy mezon hisoblanadi.

Dissertatsiyaning 3-bobi **“Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi”** deb nomlanib, mazkur bob zamonaviy yondashuvlar asosida ona tili va o'qish savodxonligi darslarini tashkil etish metodikasi, o'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini zamonaviy yondashuvlar asosida shakllantirish usullari tadqiqiga bag'ishlangan.

Ona tili o'quvchi maktabga borishdan oldin bilishi kerak bo'lgan til. Ona tilida so'zlashish muvaffaqiyatli ijtimoiy harakatlar va nutqiy munosabatlarni amalga oshirish vositasidir. Ona tili inson tarbiyasining aqliy, jismoniy va axloqiy jihatlarini

shakllantirishning ajralmas quolidir. Udumlar, odob-axloq, qadriyatlar, ezgu fazilatlar, urf-odatlar, e'tiqodlar ona tili orqali shakllanadi. Tadqiqotlar, ona tili ikki va ko'p tilli ta'limning yordamchisi sifatida muhim rol o'ynashini tasdiqlaydi. Ona tili bolaning atrof-muhitini va og'zaki muloqot ko'nikmalarini shakllantirishning tabiiy asosi bo'lib, bolalar o'zlari tushunadigan tilda muloqot qilishni o'rganadilar. Shu bois, bolaning ona tilini tushunishi ta'lim va o'qitish jarayonlarida katta ahamiyatga ega deb qabul qilinadi.

Ona tili asosida o'quvchida o'qish malakalari shakllanadi. O'qish malakalarining sifatlariga matnni to'g'ri, tez, ifodali, izohli o'qish kiradi. O'qish malakasining shakllanishi natijasida kommunikativ ko'nikmalar ham oshib boradi. O'quvchi matnni tez va to'g'ri o'qishi, matn mazmunini qiyinchiliksiz tushunishi, o'qishda bayon etilgan fikrlarni anglashi hamda mazkur fikrlar asosida shaxsiy mulohazalari shakllanadi. Matnni muayyan tezlik va aniqlikda o'qish izohli o'qish esa o'qish va tushunish samaradorligining asosidir.

O'qish ko'nikmalarini egallash maktabda o'qitiladigan barcha fanlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishning muhim shartidir. O'qish o'quv faoliyatining asosiy turi bo'lib, o'quvchilarning tasavvur, intellektual, estetik va lingvistik qobiliyatlarini shakllantirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Bu jarayon o'qish malakasini oshirish va takomillashtirish bo'yicha tizimli va maqsadli ishlashni talab qiladi. O'qish ko'nikmalarini egallash ancha murakkab va vaqt talab etadi. Psixolog T.G.Yegorov o'qish malakasini shakllantirishni 3 bosqichga bo'ladi: analitik bosqich, sintetik bosqich, avtomatlashtirilgan bosqich. Analitik bosqich dekodlash ko'nikmalarini to'g'ri o'rgatish davriga to'g'ri keladi.

Boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish savodxonligi darslarining asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarning og'zaki va yozma nutq malakalarini oshirish, boshqalar bilan samarali muloqot qilish orqali o'z fikrlarini aniq va to'g'ri ifoda etish yo'llarini o'rgatishdir. Bu masala, birinchi navbatda, dars jarayonida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi savol-javob muloqotlari orqali hal etiladi. O'quvchi har bir javobning to'g'riligini, o'rinli so'z va iboralarning ishlatilishini, talaffuzini diqqat bilan kuzatib boradi. Ona tilining fonetikasi, leksikasi va grammatikasini o'rgatish orqali o'quvchining yozma til ko'nikmalari rivojlanar ekan, o'qish darslarida asosan og'zaki nutqni, artikulyatsiyani, nutqning ravonligini oshirish vazifasi bajariladi.

Ona tili va o'qish savodxonligi darslarini shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar asosida individual; juftlik; guruh bo'lib ishlashni tashkil etilishi boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikator sifatida quyidagi qobiliyatlarni shakllantiradi:

    kreativ fikrlashni shakllantirish;

    eng original yechim va g'oyalarni topish;

    mustaqil fikrlash;

    fikrlarni dalillash;

    guruh yoki jamoa bilan hamkorlikda ishlash;

    tengdoshlari o'rtasida o'z fikrlarini erkin ifodalash;

    muammoni yechishga pozitiv yondashish;

    guruh yoki jamoa a'zolari bilan empatik munosabatda bo'lish;

    fikir yuritish, fikrlarni umumlashtirish va ular orasida eng muhimlarini birinchi o'ringa qo'yish;

faoliyatini nazorat qilish.

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar asosida individual; juftlik; guruh bo'lib ishlash kreativ usul bo'lib:

o'quvchining bilim olishga bo'lgan qiziqishi rag'batlantiriladi;

har bir ishtirokchining o'quv jarayonida faolligi ortadi;

ijobiy emotsional munosabat shakllanadi;

o'quv materialini samarali o'zlashtirish uchun qulay sharoitlar yaratiladi;

o'quvchilar dars jarayonida kuzatuvchi va tinglovchi faoliyatidan tashkil etuvchi, ishtirokchi, tahlil qiluvchi, so'zlovchi faoliyatini amalga oshirishadi;

o'quvchilarda o'rganilayotgan mavzularga nisbatan shaxsiy munosabat shakllanadi;

o'quvchilarda muhim hayotiy ko'nikmalar shakllantiriladi;

o'quvchilar xarakterining ijobiy o'zgarishini ta'minlanadi.

Kreativ ta'limning asosiy xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1. Tanqidiy fikrlash;

2. Ijodkorlik;

3. Dialog va monologik muloqot.

4. Refleksiv faoliyat.


5. Maqsadlarni qo'yish.

6. faoliyatda Tanlovni amalga oshirish;

7. Muvaffaqiyatli vaziyatlarni yaratish.

Zamonaviy yondashuvlar asosida o'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirish globallashtirish va ijtimoiylashuv faoliyatiga tayyorgarlik jarayonida asosiy o'rinni egallaydi. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar asosida ta'lim jarayonini modellashtirish bir qancha tadqiqot ishlarining samaradorligi, obyektiv afzalliklari, o'quv maqsadlariga, talablar hamda yondashuvlariga muvofiqligi, ta'lim oluvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirish uchun foydalanish imkoniyatlarini ko'rsatdi. Biz tomondan "Shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar asosida o'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirish modeli" ishlab chiqildi (1-rasm). Ushbu model maqsadli, mazmunli, jarayonli va baholash bosqichlaridan iborat. Zamonaviy yondashuvlardan foydalangan holda o'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirish jarayonini belgilab beruvchi muhim qoidalar sifatida biz motivatsion - maqsadli, shaxsga yo'naltirilgan hamda kreativ yondashuvlarga asoslandik. Maqsadli bosqich - davlat standarti, malaka talablari va o'quvchilarda fanlar negizida bayon, esse, loyihalash faoliyati, "tasavvur mashqlari", kouching suhbatlar asosida kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish bo'yicha qo'yilgan maqsadni o'z ichiga oladi.

Mazmunli bosqichda o'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirishning vazifalari, tamoyillari, yondashuvlari, pedagogik-metodik shart - sharoitlari yoritilgan. Jarayonli bosqichda biz tomondan ishlab chiqilgan "tasavvur mashqlari" bo'yicha o'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirish jarayoni amalga oshirildi.



**1-rasm. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar asosida o'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarsini shakllantirish modeli**

Tadqiqotning maqsadidan kelib chiqqan holda o'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalari zamonaviy yondashuvlar asosida rivojlantiruvchi bayon, esse, loyihalash faoliyati, tasavvur mashqlari, kouching suhbatlar hamda o'z-o'zini reflektiv baholash va shakllantirish hisobiga ta'minlanadi.

Shunga ko'ra, o'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarsini shakllantirish imkoniyatini ta'minlovchi quyidagi interfaol metodlar nazariy jihatdan asoslandi va tajriba asosida amaliyot sinovidan o'tkazildi. "Disput" kreativ ta'lim metodi kommunikativ ko'nikmalarning komponentlarini shakllantirishga imkon beradigan fikrlar to'qnashuvidan iborat bo'lib, uning maqsadi - munosabatlarni, mulohazalarni, baholarni shakllantirishdir. O'quvchilar bu metod yordamida ona tili va o'qish savodxonligi fanida amaliy mashg'ulot topshiriqlarini bajarish mobaynida o'z qarashlarini isbotlagan holda himoya qilishni, ularga boshqa odamlarni zamonaviy usullar bilan ishontirishga, etika me'yorlari va talablaridan voz kechmaslikni o'rgatadi.

"Kouching" kreativ ta'limiv metod sifatida kommunikativ faoliyatda o'quvchilarining motivatsiyasini vujudga keltirishga, ushbu jarayon qoniqish hosil qiladigan darajada muloqot maqsadlarini shakllantirishga va ularga erishishga yordam beradigan muhitni yaratish (suhbat va maqsadga yo'naltirilgan xulq-atvor yordamida) qaratiladi. Bunda o'quvchilar berilgan topshiriqlarni guruh bilan bajarish jarayonida eng samarali natijani olish uchun birgalikdagi ijtimoiy, shaxsiy va ijodiy salohiyatni amalga oshirishga yordam beradigan tizimda ishlaydi. "Kouching" metodi - dars va darsdan tashqari jarayonlarda ko'rsatmalar berish, o'quvchilarda shaxsiy salohiyat, o'z-o'zini nazorat qilish va mas'uliyat hissini shakllantirishga yordam beradigan texnologiya hisoblanadi.

O'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirishga doir "Tasavvur mashqi" - psixologik jarayon bo'lib, uning yordamida o'zining yoki boshqa odamning orzu qilgan fikrlari, his-tuyg'ulari va xatti-harakatlarini ongli harakatlarga tayanmasdan, reflektiv sifatida qo'zg'atishi mumkin bo'lgan ogohlantirishlarni taqdim etish orqali o'quvchida o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi. Bu o'quvchiga verbal va noverbal emotsional bezalgan ta'sir usuli. Ishontirishning maqsadi o'quvchilarda muayyan emotsional holatni yaratish hisoblanadi. Bu metod harakatga undashda ham qo'llaniladi. "Tasavvur mashqi" imkoniyatlarini nomoyon qilish, shijoatli bo'lish hamda qo'rquvni yengishga o'rgatadi. "Tasavvur mashqi" bilan birga ta'sirning boshqa usullaridan ham foydalanish zarur, masalan, argumentlashni, isbotni kuchaytirish, fikrlarni dalillash, bosqichma-bosqich amalga oshirish kabi.

"Rasmi hikoya" mashqida o'quvchilarga bir-biriga mazmunan yaqin bo'lmagan rasmlar taqdim etiladi. Har bir rasmini birin-ketin aniq nomlashi hamda tasavvur kuchi bilan mazkur rasmlarga kundalik hayotida ro'y beradigan voqealarni integratsiyalash asosida hikoya yaratish topshiriq sifatida beriladi. Bu mashqni amalga oshirishdan maqsad kundalik hayotida ro'y beradigan voqealarda tanish bo'lmagan vaziyatlarni tasavvurida qayta tiklanadigan tasvirlar asosida bosqichma bosqich fikrlash va fikrlarini tizimlashtirish asosida hikoya yozishga; ijtimoiy moslashuvchanligini oshirishga; nostandart vaziyatlarda tez va to'g'ri qaror qabul

qilishga; kreativ, kritik, mantiqiy fikrlash asosida o'quvchilarda kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan.

“So‘zlar va rasmlarni moslashtirish” mashqida predmetlarning nomlari aralash holatda talaffuz qilinadi, diqqat bilan eshitish malakasini oshirish orqali so‘zlarni qaysi rasimga to‘g‘ri kelishini tezkorlik bilan aniq aytib bera olish ko‘nikmasi rivojlantiriladi. Biz tomondan o‘quvchilarning o‘zini-o‘zi kommunikativ ko‘nikmalarini shakllantirishga hamda mustaqil ishlashga qaratilgan “Tasavvur mashqlari” dasturining elektron dasturi ishlab chiqilgan bo‘lib, “Tasavvur manbasi”, “topshiriqlarni bajarish yo‘riqnomasi”, “baholash jurnali” kabi komponentlardan iborat o‘z ichiga olgan elektron mashg‘ulot loyihasi yaratilgan. “Tasavvur manbasi” blokida o‘quvchilarga “Mening bugungi kunim”, “Men elajakda...”, “Mening orzularim”, “Men dizayner bo‘lganimda”, “Do‘stlarim va men”, “Mening ertaklarim”, “Men ustoz bo‘lganimda”, “Mening qahramonim”, “Dadam bilan bir kun”, “Mening tug‘ilgan kunim” mavzulari berilgan. Mazkur mavzulardan birini tanlagach, o‘quvchiga tanlangan mavzu mazmunini aks ettiruvchi hamda pozitiv va negativ kayfiyat beradigan rasmlar, belgilar taqdim etiladi. O‘quvchilar rasmlar va belgilar tanlashadi. Shu ketma-ketlik asosida o‘quvchilar o‘ziga ma’qul keladigan tasavvur mashqini bajaradilar. “Topshiriqlarni bajarish yo‘riqnomasi” blokida o‘quvchilar tanlagan mavzu asosida hayotiy voqealarga asoslangan hikoyalar yaratadilar.

“Baholash jurnali” blokida tasavvur mashqi jarayonida o‘quvchilar tomonidan tanlangan mavzu, rasmlar va belgilar asosida yaratilgan hikoyalar sotsial diagnostik vositalar yordamida baholanib boriladi.

Baholash bosqichiga o‘quvchilarning kommunikativ ko‘nikmalarining rivojlanganlik mezonlari va darajalari kiritilgan. Tadqiqotimizda biz tomondan ishlab chiqilgan model va metodika bo‘yicha o‘quvchilarning kommunikativ ko‘nikmalari muayyan darajada rivojlanganligi asoslandi.

Model komponentlarning to‘liqligi va o‘zaro bog‘liqligi bo‘yicha o‘rganilayotgan jarayonni ajralmas holda aks ettiradi: maqsadli, mazmunli, texnologik-jarayonli, baholovchi-natijaviy. Mazkur modelning integrativligi uning barcha asosiy komponentlarining o‘zaro bog‘liqligi va o‘zaro ta’sirida, o‘quvchilarning kommunikativ ko‘nikmalarini shakllantirish maqsadlari, mazmuni, tashkiliy shakllari va usullarini birlashtirishda namoyon bo‘ladi.

Bundan tashqari, biz tomonimizdan ishlab chiqqan mazkur model yaxlitlik (uning barcha komponentlarining o‘zaro bog‘liqligi va o‘zaro ta’siri, maqsadlari, mazmuni, tashkiliy shakllari va usullarining bog‘liqligi), muloqotchanlik va moslashuvchanligi (ta’lim sifati va mazmuniga qo‘yilayotgan talablarni hisobga olgan holda o‘quvchilarning kommunikativ ko‘nikmalarini shakllantirish)ni aks ettiradi. Tadqiqot davomida olingan nazariy natijalarni amaliyotga joriy qilish metodik tizimining ishlab chiqilgan metodik model, “maqsadli”, “mazmunli”, “texnologik-jarayonli” va “natijaviy-baholash” komponentlaridan tashkil topgan hamda maqsad, yondashuvlar, tamoyillar, bosqichlar, didaktik shart-sharoitlar kabi elementlarni o‘z ichiga oladi.

Tanlangan yondashuvlar va tamoyillarga muvofiq, o‘quvchilarning kommunikativ ko‘nikmalarini shakllantirish modeli asosida maqsadli, mazmunli,

texnologik-jarayonli va baholovchi-natijaviy komponentlarni o'z ichida mujjasam etgan modelni ilmiy metodik natijalarini tajriba-sinov ishlari jarayonida sinovdan muvaffaqiyatli o'tkazildi.

Dissertatsiya ishining 4-bobi **“O‘quvchilarning kommunikativ ko‘nikmalarini zamonaviy yondashuvlar asosida shakllantirish samaradorligi”** deb nomlanib, mazkur bobda maktab o‘quvchilarining kommunikativ ko‘nikmalarini zamonaviy yondashuvlar asosida shakllantirish bo‘yicha o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari mazmuni, natijalari tahlil etilgan.

O‘quvchilarning kommunikativ ko‘nikmalarini zamonaviy yondashuvlar asosida shakllantirish metodologiya bilan bog‘liq tajriba-sinov ishlari “5M” ga e’tibor qaratish asosida motivatsiya, mavzu, muloqot, mantiqiy fikrlash, metodika tashkil etildi.

Ushbu komponentlarning har biri o‘quvchilarning kommunikativ ko‘nikmalarini zamonaviy yondashuvlar asosida shakllantirish metodologiyasi bilan bog‘liq tajriba-sinov ishlarini olib borishda muhim rol o‘ynaydi.

Motivatsiya respondentlar bilan ishlash jarayonida ular bilan yaqindan tanishish, emotsional ijobiy munosabatga kirishish imkonini beradi. “Mavzu” deganda o‘qituvchi beradigan yangi ma’lumotlar, ko‘nikmalar va tajribalar tushuniladi. Respondentlarga qiziq bo‘lgan mavzuda muloqot jarayonining tashkil etilishi, muloqotning tushunarligini ta’minlaydi. Muloqot uchun tanlangan mavzuda respondentlarni mantiqiy fikrlashga undaydigan keyslarning berilishi tanlangan metodikaning natijadorligini oshiradi.

O‘quvchilarda kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirish uchun mashg‘ulotlar davomida quyidagi jihatlarga e’tibor qaratish lozim:

1. O‘quvchilarni turli masalalar yuzasidan o‘z fikrlarini bildirishga undash, mantiqiy fikrlarni ifodalash imkonini berish.

2. Har bir o‘quvchi tomonidan bildirilgan g‘oyalarga ishtiyoq uyg‘otish, bildirilgan g‘oyalar orasidan eng maqbulini tanlab olish. Bu o‘z navbatida yangi g‘oyalarning paydo bo‘lishiga olib keladi.

3. Har bir o‘quvchi o‘zining shaxsiy fikriga tayanishi va ularni o‘zgartirish imkoniyatiga ega bo‘lishi.

4. Ilgari bildirilgan fikrlarni umumlashtirish, tizimlashtirish yoki o‘zgartirish ilmiy asoslangan fikrlarni shakllantirishga yordam berishi.

5. Mashg‘ulotlar davomida o‘quvchilarning g‘oyalariga nol baho qo‘ymasdan, standart talablar asosida ish faoliyatini nazorat qilish kerak. Agar g‘oyalar baholansa, o‘quvchilar o‘zlarining shaxsiy fikrlarini himoya qilishda ikkilanishlari mumkin, natijada yangi g‘oyalar paydo bo‘lishiga to‘sqinlik qiladilar.

6. Shuni unutmaslik kerakki, o‘quvchilarda kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirishning asosiy maqsadi ularni masalalar bo‘yicha keng fikr yuritishga undash va o‘z fikrlarini oddiygina baholash bilan cheklanib qolmaslikdir.

Maktab o‘quvchilarining kommunikativ ko‘nikmalarini shakllantirish samaradorligini aniqlashga qaratilgan - tajriba-sinov ishlari 2022-2024-yillarda Samarqand viloyati Narpay tumanidagi 68-, 56-Navoiy viloyati Xatirchi tumanidagi 7-, 65-Toshkent viloyati Chirchiq shahridagi 25-, 12-maktablarda olib borilgan

aniqlovchi, shakllantiruvchi va yakuniy bosqichlardan iborat bo'ldi. Pedagogik tajriba-sinov ishlarida o'qituvchilar hamda 820 nafar o'quvchilar ishtirok etdilar.

Pedagogik tajriba-sinovning asosiy maqsadi maktab o'quvchilarining kommunikativ ko'nikmalarini ona tili va o'qish savodxonligi fanlarini shaxsga yo'naltirilgan kreativ metod hamda kouchinglar asosida o'qitish orqali shakllantirishdan iborat bo'ldi. Maktab o'quvchilarining faoliyatini kuzatish va tahlil qilish natijasida o'quvchilar uchun muhim bo'lgan kommunikativ ko'nikmalar negizidagi bir qancha sifatlar mavjud ekanligi, lekin o'quvchilar bilan innovatsion ta'lim muhiti sharoitida kommunikativ ko'nikmalarining yetarlicha qamrab oluvchi sifatleri rivojlanmaganligi ma'lum bo'ldi. Shu jihatlarni hisobga olib o'quvchilarining o'z-o'zining kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirishga hamda mustaqil ishlashga qaratilgan "tasavvur mashqlari" dasturining elektron dasturi ("tasavvur manbasi", "topshiriqlarni bajarish yo'riqnomasi", "baholash jurnali" kabi komponentlardan iborat o'z ichiga olgan) tajriba-sinov ishlariga joriy etildi. Mazkur dastur asosida ona tili va o'qish savodxonligi fanlarini o'qitish jarayonida kreativ metod hamda kouching mashqlari olib borildi. Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan maxsus kurs dasturi bo'yicha mashg'ulotlarda "disput", "kouching", "tasavvur", "domino" usuli kabi kreativ metodlar, "kim ko'p so'z topadi" mobil o'yini, "rasmlarga nom berish", "so'zlar va rasmlarni moslashtirish", "rasmli hikoya" kabi kouching mashqlaridan samarali foydalanildi. Bunda kommunikativ ko'nikmalarni oshirish bosqichlari, kouching mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazishda mavjud darsliklar, dastur asosida yaratilgan o'quv-metodik ta'minot va uslubiy qo'llanma orqali samarali yetkazib berish kerakligi asosiy maqsad qilib qo'yildi. Maktab o'quvchilarining kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish bo'yicha o'quv yiliga mo'ljallangan "tasavvur mashqlari"ning elektron dasturi ("tasavvur manbasi", "topshiriqlarni bajarish yo'riqnomasi", "baholash jurnali" kabi komponentlardan iborat ) ishlab chiqilib, unda mashg'ulotlarni o'tkazish davriyligi haftada 4 soat qilib belgilandi. O'qitish tajriba guruhi deb nomlangan guruhda kreativ metodlar va kouchinglar asosida ta'lim berishdan iborat bo'lib, u quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi.

Birinchi qadam: maktab o'quvchilarining kommunikativ ko'nikmalarini aniqlash: diagnostika, test sinov; kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish yo'llarini aniqlash.

Ikkinchi qadam: maktab o'quvchilarining kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirish mexanizmlari: kreativ metodlar va kouchinglar orqali. Izlanishlar tajribasini o'rganish usullari: maktab o'quvchilari bilan suhbat; ishtirokchilardan olinadigan so'rovnoma; tajribaviy o'qitish.

Ta'lim bosqichini o'rganish usullari: tajribaviy o'qitish, kuzatuv, so'rovnoma; anketa va test javoblarining elementar tahlili hamda natijalarini statistik qayta ishlash;

o'qituvchilarning fikr-mulohazalarini o'rganish. Kognitiv, faoliyatli va kreativ mezonlar asosida o'quvchilarda kommunikativ ko'nikmalarining rivojlanganlik darajasi aniqlanadi.

Masalaning qisqacha mohiyati quyidagilardan iborat: ikkita bosh to'plam berilgan bo'lsin. Biri tajriba guruhidagi o'quvchilar bilimining o'rtacha ballari, ikkinchisi esa nazorat guruhidagi o'quvchilar bilimining o'rtacha ballari. Baholar normal taqsimotga ega deb hisoblanadi. Bunday faraz o'rinlidir, chunki normal

taqsimotga yaqinlashish shartlari sodda bo‘lib, amalda bajariladi.

1-jadval

**Tajriba boshida o‘quvchilarda zamonaviy yondashuvlar asosida kommunikativ ko‘nikmalarning shakllanganlik darajasi ko‘rsatkichlari**

Guruhlar	O‘quvchilar soni	O‘zlashtirish darajalari sonida va foizda			
		“5”	“4”	“3”	“2”
Tajriba guruhida	820	39 18,7	53 25,35	53 25,35	64 30,6
Nazorat guruhida	820	42 20,1	59 28,23	53 25,35	55 26,32

Ushbu jadvaldan tajriba guruhidagi o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari va o‘quvchilar sonini mos ravishda  $x_i n_i$  lar va shu kabi nazorat guruhidagisini esa  $y_j n_j$  lar orqali belgilab olib, quyidagi statistik guruhlangan variatsion qatorlarga ega bo‘lamiz. Shuningdek, “5” bahoni 4 ball bilan, “4” bahoni 3 ball bilan, “3” bahoni 2 ball bilan va “2” bahoni 1 ball bilan belgilaymiz.


Tajriba guruhidagi o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari:

$$\begin{cases} X_i & 4; & 3; & 2; & 1; \\ n_i & 63; & 77; & 43; & 66; \end{cases} \quad n = \sum_{i=1}^4 n_i = 209$$

Nazorat guruhidagi o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari:

$$\begin{cases} Y_i & 4; & 3; & 2; & 1; \\ m_i & 33; & 48; & 56; & 72; \end{cases} \quad m = \sum_{i=1}^4 m_i = 209$$

bu tanlanmalarga mos kelgan diagramma quyidagicha ko‘rinishni oladi:



**2-rasm. Tajriba va nazorat guruhlari o‘quvchilarida kommunikativ ko‘nikmasining rivojlanganlik darajalari diagrammasi**

O'tkazilgan tajriba-sinov natijalariga asoslangan holda o'quvchilarda zamonaviy yondashuvlar asosida kommunikativ ko'nikmalarni shakllanganlik darajasini aniqlash yuzasidan o'tkazilgan tajriba-sinov natijalari bo'yicha tajriba va nazorat guruhlaridagi o'rtacha o'zlashtirishlarini studentning matematik-statistika metodi yordamida tahlil etdik. Tajriba-sinovda jami 820 nafar o'quvchilar qatnashib, tajriba guruhida 410 nafarni va nazorat guruhida 410 nafarni tashkil etdi. Tajriba sinov ishlari jarayonida o'quvchilarda kommunikativ ko'nikmalarning shakllanganlik darajasini baholashda quyidagi mezonlardan foydalanilda:

Matnda belgilangan aniq ma'lumotni topish;

Matn mazmuni yuzasidan xulosalarni shakllantirish;

Matnda aks etgan ma'lumotlarni tahlil va talqin qilish hamda umumlashtirish;

Matn mazmuni, tuzilishi va til xususiyatlarini tahlil qilish hamda baholash;

Masalaning qisqacha mohiyati quyidagilardan iborat: ikkita bosh to'plam berilgan bo'lsin. Biri tajriba guruhidagi o'quvchilar bilimining o'rtacha ballari, ikkinchisi esa nazorat guruhidagi o'quvchilar bilimining o'rtacha ballari. Baholar normal taqsimotga ega deb hisoblanadi. Bunday faraz o'rinlidir, chunki normal taqsimotga yaqinlashish shartlari sodda bo'lib, amalda bajariladi.

Olingan natijalardan o'qitish samaradorligini baholash mezoni birdan kattaligi va bilish darajasini baholash mezoni noldan kattaligini ko'rish mumkin. Bundan ma'lumki, tajriba guruhidagi o'zlashtirish nazorat guruhidagi o'zlashtirishdan 12% ga oshganligi tahlillarda aniqlandi.

Demak, o'quvchilarda zamonaviy yondashuvlar asosida kommunikativ ko'nikmalarning shakllanganlik darajasini aniqlash bo'yicha o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari samarador ekanligi statistik tahlildan ma'lum bo'ldi.

## UMUMIY XULOSA VA TAVSIYALAR

Tadqiqot davomida olib borilgan ilmiy izlanishlar, taqdim etilgan metodik ishlanmalar, ishlab chiqilgan dasturiy ta'minot va tavsiyalarni umumlashtirgan holda quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Pedagogik-psixologik o'rganishlar, uslubiy-didaktik shart-sharoitlar asosida maktab o'quvchilarini shaxs sifatida o'z-o'zini shakllantirish va kommunikativ-nutqiy faoliyatga tayyorlashda metodologik yondashuvlar va didaktik tamoyillarni shakllantirish zarurligi, ta'lim sifatini oshiruvchi ijtimoiy muhitni tashkillashtirish hamda o'quv jarayonining axborot-metodik ta'minotini mazmunan takomillashtirish o'quvchilarning kelajakdagi kasbiy faoliyati uchun muhimligi asoslandi hamda nazariy xususiyatlari aniqlandi.

2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishda boshlang'ich sinf ona tili fanining o'quv dasturida belgilangan mavzularni innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida loyihalash va tashkil qilish hamda yozma va og'zaki nutqini muvaffaqiyatli o'zlashtirishga qaratilgan mashqlarni bajarish amaliy ko'nikmalarini hosil qilish o'quvchilarning potensial imkoniyatlarini amalga oshirishda yordam beradi.

3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirishda ta'lim tamoyillari (muloqotga yo'nalganli, stilistik differentsatsiya,

ta'limning ijodiy yo'nalganligi, fanlararo integratsiya, fan ichidagi integratsiya), ta'lim mazmunining komponentlari (pragmatik, lingvistik, ijtimoiy – madaniy, ijtimoiy-lingvistik) kompetensiyaviy yondashuvning muhim jihatidir.

4. Maktab o'quvchilarida kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishning mantiqiy-funksional tuzulmasiga asoslangan metodik modeli komponentlarni o'z ichiga olgan jarayonda o'quvchilarning ta'lim sub'yekti sifatida faolligini oshirishni, turli xil vaziyatlarda shaxsiy, ijtimoiy, kommunikativ me'yorlarni hamda rolli xulqni ta'minlovchi, kommunikativ ko'nikmalarlar rivojlanishiga yo'naltirilgan pedagogik strategiyani ishlab chiqish ta'lim subyektlarining tanqidiy, mantiqiy fikrlash, hamkorlikda ishlash hamda loyihalash faoliyati refleksivlikni shakllantiradi.

5. Maktab o'quvchilarida kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishda innovatsion metodlar va kouchinglar hamda o'quvchilarining o'z-o'zining kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirishga hamda mustaqil ishlashga qaratilgan "tasavvur mashqlari" dasturining elektron dasturi ("tasavvur manbasi", "topshiriqlarni bajarish yo'riqnomasi", "baholash jurnali" kabi komponentlardan iborat) amaliyotga joriy etildi.

6. "disput", "kouching", "tasavvur", "domino" usuli kabi kreativ metodlar, "kim ko'p so'z topadi" mobil o'yini "rasmlarga nom berish", "so'zlar va rasmlarni moslashtirish", "rasmli hikoya" kabi kouching mashqlarining imkoniyatlari aniqlandi va muloqot jarayonidagi masalalarni yechish asosida dialog, o'quv, ishbilarmonlik va rolli o'yinlar, aniq vaziyatlarni tahlil qilish shakllarida o'quvchilarning o'zaro bir-biri bilan, o'qituvchi bilan, muloqotdagi vaziyatlar bilan faol mahsuldor o'zaro munosabat usullari sifatida qarab chiqildi.

7. Zamonaviy yondashuvlar imkoniyatlaridan foydalanish orqali nutqini o'stirish hamda "innovatsion ta'lim texnologiyalari va metodlari" fanining o'quv metodik ta'minotini optimallashtirish asosida kommunikativ xarakterdagi mashqlar tizimi ishlab chiqildi va o'quvchilarda kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish metodikasi mazmuni takomillashtirildi.

8. Zamonaviy yondashuvlar asosida maktab o'quvchilari kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan kouching mashg'ulotlarining samarali imkoniyatlarini o'quv mashg'ulotlari hamda mustaqil ta'limga joriy etish hisobiga motivatsion-maqсадli (muammolilik, qiziqtirish, ijodiy va amaliy yo'nalganlik) omillari aniqlandi.

9. O'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirishda muloqot qobiliyatini o'zlashtirish mantiqiy, tanqidiy fikrlashga ega bo'lishni talab etadi.

10. O'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirish ko'rsatkichlari motivatsion, kognitiv, kommunikativ faoliyatning to'rt darajadagi (yuqori, o'rta, past, juda past) refleksiv mezonlarini belgilash asosida mazkur ko'rsatkichlar yuzasidan tajriba-sinov ishlari o'tkazilib, olingan natijalar taklif etilgan metodika va o'quv metodik ta'minot samarali ekanligini, o'quvchilarda kommunikativ ko'nikmalarining rivojlanish darajalari 16 % oshganligini ko'rsatdi.

11. O'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini muvaffaqiyatli shakllantirish uchun o'qituvchi o'quv jarayonining sub'yekti sifatida o'quvchining shaxsiga yo'naltirilgan, uning tajribasi, bilish darajasi, qiziqishi va qobiliyatini hisobga olgan

holda, uni izlash, tadbiq qilish, aniqlash va muammolarni hal qilishga jalb qilgan holda uni idrok etishi, tushunishi hayotiy vaziyatlarda qo'llay olishiga e'tibor qaratadigan metodik ta'lim ekotizmini yaratishi taqozo etadi.

## **TAVSIYALAR**

Biz tomondan tadqiqotimiz doirasida maktab o'quvchilarida kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan bir qator tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. O'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirishni takomillashtirishga xizmat qiluvchi kreativ metodlar va kouchinglarni samarali tashkil etish va o'tkazish bo'yicha o'quv metodik qo'llanmalar yaratish hamda amaliyotga joriy qilish.

2. O'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarni zamonaviy yondashuvlar asosida shakllantirishga yo'naltirilgan maxsus kurs dasturini maktablarga joriy etish.

3. O'quvchilar o'zini-o'zi kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan elektron o'quv kursidan amalda foydalanish.

4. O'quvchilarning o'zini-o'zi kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan mobil ilovalar va dasturiy ta'minotini yaratish bo'yicha mahalliy grantlar va loyihalarni aniqlashga qaratilgan tanlovlar o'tkazish.

5. Maktab o'quvchilaridan ona tili va o'qish savodxonligi hamda boshqa fanlar yuzasidan olinadigan nazorat ishlarida beriladigan topshiriqlar yozma tarzda o'tkazilishi hamda o'quvchilar esse, bayon asosida olgan bilimlarini sinovdan o'tkazish.

**УЧЕНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ  
DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 ПРИ ЧИРЧИКСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ  
ПЕДАГОГИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**ЧИРЧИКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ  
УНИВЕРСИТЕТ**

**ХОЛИКУЛОВА ФЕРУЗА ХАСАНОВНА**

**МЕТОДИКА ФОРМИРОВАНИЯ КОММУНИКАТИВНЫХ УМЕНИЙ  
УЧАЩИХСЯ НА ОСНОВЕ СОВРЕМЕННЫХ ПОДХОДОВ  
(на примере предмета родного языка и грамотности чтения)**

**13.00.02 – Теория и методика обучения и воспитания**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ПЕДАГОГИЧЕСКИХ НАУК (DSc)**

**Чирчик – 2024**

**Тема диссертации доктора наук (DSc) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2024.3.DSc/Ped977.**

Диссертация выполнена в Чирчикском государственном педагогическом университете.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на сайте Ученого совета (cspu.uz ilmiy-kengash) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

**Научный консультант:** **Ботирова Шакло Исамиддиновна**  
доктор педагогических наук, профессор

**Официальные оппоненты:** **Хурвалиева Тармиза Латиповна**  
доктор педагогических наук, профессор

**Артикова Мухайе Ботиралиевна**  
доктор педагогических наук, профессор

**Халова Мафтуна Абдусаламовна**  
доктор филологических наук, доцент

**Ведущая организация:** **Шахрисабзский государственный педагогический институт**

Защита диссертации состоится на заседании Ученого совета DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 при Чирчикском государственном педагогическом университете «\_\_» \_\_\_\_\_ 2024 года в \_\_\_\_ часов. (Адрес: 111720, Ташкентская область, г. Чирчик, ул. Амира Темура, 104. Тел.: (99870) 712-27-55; факс: (99870) 712-45-41; e-mail: chdru-kengash@umail.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Центре информационных ресурсов Чирчикского государственного педагогического университета (зарегистрирован под номером \_\_\_\_). Адрес: 111720, Ташкентская область, город Чирчик, улица Амира Темура, 104. Телефон: (99870) 712-27-55; факс: (99870) 712- 45-41).

Автореферат диссертации разослан «\_\_» \_\_\_\_\_ 2024 года.

(протокол реестра под номером \_\_\_\_\_ от “\_\_” \_\_\_\_\_ 2024 года).

**У.Н. Худжамкулов**

Председатель ученого совета по присуждению  
ученых степеней, д.п.н., профессор

**Ф.Т. Раджабов**

Секретарь ученого совета по присуждению  
ученых степеней, д.п.н., доцент

**В.Б. Файзиев**

Председатель научного семинара при учёном совете  
по присуждению учёных степеней, д.б.н., профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук (DSc))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** Глобальные изменения, происходящие в мире в социально-экономической и научно-технической сферах, требуют формирования системы образования на основе требований компетентностного подхода. На Международном симпозиуме «Основные компетенции для Европы», проведенном Советом Европы в Берне, подчеркивались способность учащихся эффективно использовать «навыки ясного общения и письма», формирование устного и письменного общения, что важно для личного развития и общественной жизни, подвержение людей, не обладающих коммуникативными навыками, риску «социальной изоляции». Сегодня особое внимание уделяется комплексному использованию традиционных и инновационных методов обучения при формировании и оценке у обучающихся коммуникативных навыков, которые входят в систему базовых компетенций. Поэтому поиск практических решений проблем, связанных с формированием коммуникативных навыков обучающихся, остается актуальным.

Опираясь на международный опыт, научно-исследовательские центры в таких развитых странах, как США, Великобритания, Германия, Россия, Финляндия, Южная Корея, добиваются практических результатов в разработке научно обоснованной методической системы планирования проектов на основе модернизации учебного процесса. Поэтому большое значение имеет изменение существующей образовательной парадигмы по разработке стратегий практического применения теоретических знаний в системе подготовки конкурентоспособных и квалифицированных кадров. Формирование умений и навыков учащихся по адаптации к нестандартным ситуациям, диагностическому анализу существующих проблем и поиску их решений и применению их в будущей деятельности, решению на этой основе отраслевых и жизненных задач является одной из актуальных задач, стоящих перед системой образования. Поэтому особое внимание уделяется подготовке учащихся, активно творчески мыслящих, любознательных, самостоятельно находящих необходимую информацию и умеющих использовать ее в своей практической деятельности и жизненных ситуациях.

Основным направлением стратегических задач в сфере образования в нашей стране является воспитание учащихся любознательными, умеющими самостоятельно мыслить, применять свои знания в различных жизненных ситуациях. Поэтому, чтобы четко определить тенденции развития, необходимые на благо общества и личности, «Формирование деятельности всех звеньев системы образования и обучения на основе требований сегодняшнего времени» рассматривается как приоритетная задача.<sup>1</sup> Это показывает необходимость модернизации системы формирования творческих, критических, коммуникативных, коллаборативных умений у учащихся средних

---

<sup>1</sup> Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года ПУ-60 «О Стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы». <https://lex.uz/docs/5841063>

общеобразовательных школ и формирования ее инновационных педагогических и методических основ. Современные методы обучения, содержание, технологическая структура, ориентирующие устное и письменное общение учащегося на использование в реальных взаимоотношениях, обуславливают необходимость создания инновационных научных методических основ, исходя из существующих условий.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач, определенных в Указах Президента Республики Узбекистан ПУ-60 от 28 января 2022 года «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», «Концепции формирования системы Народного образования Республики Узбекистан до 2030 года», принятой на основании указа ПУ-5712 от 29 апреля 2019 года, ПУ-6108 от 6 ноября 2020 года «О мерах по дальнейшему формированию сферы образования и науки в период нового развития Узбекистана», ПУ-6079 от 5 октября 2020 года «О мерах по утверждению стратегии «Цифровой Узбекистан – 2030» и ее эффективной реализации» и Постановлении ПП-4939 от 31 декабря 2020 года «О мерах по коренному формированию системы оценки квалификации и обеспечению рынка труда квалифицированными кадрами», в постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан от 7 августа 2020 года КМ-466 «Об утверждении нормативных правовых документов, регулирующих систему непрерывного начального, среднего и среднего специального профессионального образования в Республике Узбекистан», также в других нормативно-правовых актах, относящихся к этой сфере.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Данная исследовательская работа выполнена в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Пути формирования системы инновационных идей и их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства».

**Степень изученности проблемы:** Анализ проведенных научных исследований показал, что педагогико-психологические особенности формирования речи учащихся, проблемы коммуникативной грамотности изучались в научных исследованиях С. Матчон, И. Азимовой, Ш. Юсуповой, М.Т. Мирсолиевой, Н. Абдуллаевой, Д. Абдурахимовой, З. Азизовой, Ш. Хурвалиевой, Г. Ибрагимовой, М. Бердиевой, Р. Суннатовой, Ш. Нуралиевой, М.Ф.Курбоновой, К. Хусанбоевой, Г. Бердалиевой, М. Хушназаровой; вопросы профессионально-коммуникативной компетентности, компетентностного подхода в подготовке будущих специалистов – в научных исследованиях Б.С.Абдуллаевой, С.А.Абдуллаева, В.И.Андриановой, Р.Г.Исьянова, Н.А.Муслимова, В.Х.Хасанова, формирование коммуникативной компетентности будущих учителей начальных классов – в научных исследованиях У.В. Зиятдинова, Нишоналиева, А.И. Воробьева.

Среди ученых стран СНГ, теоретические и практические основы формирования коммуникативной компетентности нашли отражение в работах

